

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



TOSHKENT-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARINING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE’LLARINING IZOHLI
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna
HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM
MISOLIDA).....54

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

Qurbonova Sevara Sodiq qizi –
Urganch davlat universiteti magistranti
E-mail.: qurbanovasevrs1996@gmail.com

XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15363011>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm vohasida ibtidoiy urug'chilik jamiyatining shakllanishi tabiiy-geografik omillar, daryo o'zanlarining harakati va arxeologik topilmalar asosida tahlil qilinadi. Neolit va bronza davrlarida Amudaryoning qadimiy tarmoqlari atrofida jamoaviy hayot shakllangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, suv resurslari, unumdor yerlar va iqlim sharoiti ibtidoiy jamiyatlarning o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tishiga olib kelgan. Arxeologik yodgorliklar Xorazmda urug'chilik tuzumining shakllanishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, urug'chilik jamiyati, ibtidoiy jamiyat, Amudaryo, Oqchadaryo, Kaparas madaniyati, Kaltaminor madaniyati, Suvyorgan madaniyati, Tozabog'yop madaniyati, Amirobod madaniyati, arxeologik topilmalar, paleogeografiya, antropogen landshaft, neolit davri, bronza davri, Gerodot.

Курбонова Севара Содик кизи —
магистрант Ургенчского государственного университета

ГЕОПОЛИТИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВА СЕМЕНОВОДСТВА В ХОРЕЗМСКОМ ОАЗИСЕ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется формирование первобытных сельскохозяйственных обществ в Хорезмской долине на основе природно-географических факторов, движения русел рек и археологических находок. Подчеркивается, как коллективная жизнь формировалась вокруг древних рукавов Амударьи в неолитическую и бронзовую эпохи. Исследования показывают, что близость к водным ресурсам, плодородным землям и климатические условия способствовали переходу от хозяйства самообеспечения к производительному хозяйству. Археологические памятники подтверждают становление сельскохозяйственных систем в Хорезме с древнейших времен.

Ключевые слова: Хорезмский оазис, родовое общество, первобытное общество, река Амударья, река Окчадарья, Капарасская культура, Калтаминарская культура, Сувйорганская культура, Тозабагъябская культура, Амирободская культура, археологические находки, палеогеография, антропогенный ландшафт, неолит, бронзовый век, Геродот.

Kurbonova Sevara Sodiq qizi —
Master's student of Urgench State University

GEOPOLITICAL FORMATION OF THE SEED BREEDING SOCIETY IN THE KHOREZM OASIS

ABSTRACT

This article analyzes the formation of primitive tribal society in the Khorezm oasis based on natural-geographical factors, riverbed movements, and archaeological findings. During the Neolithic and Bronze Ages, communal life developed around the ancient branches of the Amu Darya. Research results indicate that water resources, fertile lands, and climatic conditions led primitive societies to transition from an appropriating economy to a productive one. Archaeological monuments demonstrate the formation of the tribal system in Khorezm.

Keywords: Khorezm Oasis, clan society, primitive society, Amu Darya River, Oqchadarya River, Kaparas culture, Kaltaminar culture, Suvyorgan culture, Tozabagyab culture, Amirobod culture, archaeological findings, paleogeography, anthropogenic landscape, Neolithic Age, Bronze Age, Herodotus.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Ushbu maqolada Xorazm vohasida urug'chilik jamiyatining shakllanishi tabiiy-geografik omillar, daryo o'zanlarining harakati va arxeologik topilmalar asosida tahlil qilinadi. Maqsad – Xorazm vohasida ibtidoiy jamiyatlarning taraqqiyot jarayonlarini, ayniqsa urug'chilik tuzumining shakllanishini tushunishdir.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Xorazm vohasida urug'chilik tuzumini o'rganishdan oldin, hududning geografik tuzilishini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buni amalga oshirish uchun paleogeografik, arxeologik va tarixiy manbalarni o'rganish lozim. Janubiy Orolbo'yi geografik o'rni jihatidan, Quyi Amudaryo havzasining o'ng va so'l sohillari yerlarini o'z ichiga olgan. Xorazm vohasi Qoraqum va Qizilqum oralig'idagi Turon pasttekisligining o'rta qismida joylashgan. Voha hududlarida baland tog'lar mavjud emas. O'ng sohil Amudaryo yerlaridagi Sulton Uvays tog'larining eng yuqori balandligi 500 metrdan oshmaydi. Shu bois shimoldan sovuq, janubdan issiq havo oqimining kirib kelishiga tabiiy to'siqlar bo'lmagan. [1, C.116-121]

Shu asosda Xorazm vohasi Amudaryo suv manbai atrofida shakllangan degan xulosaga kelish mumkin. Suv resurslari baliqchilik, tekislik va cho'llik hududlar esa chorvachilik va ovchilik rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratgan.

Quyi Amudaryoning o'zgaruvchanligi – daryoning migratsiyasi tufayli, uning uchta o'zani – deltasi: Oqchadaryo, Sariqamishbo'yi va Orolbo'yi o'zanlari vujudga kelgan. Xususan, ularning qirg'oqlarida madaniy landshaft shakllanib, ibtidoiy urug'chilik jamoalari dastlab o'zlashtiruvchi va bronza davridan boshlab ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar bilan mashg'ul bo'lganlar. [2, C.72-80]

Quyi Amudaryoning o'zgaruvchan tabiati va uning natijasida vujudga kelgan Oqchadaryo, Sariqamishbo'yi va Orolbo'yi o'zanlari atrofida madaniy landshaftlarning shakllanishi Xorazm vohasida ibtidoiy jamiyatlarning rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Ushbu hududlarda suv resurslariga yaqinlik, unumdor yerlarning mavjudligi va qulay iqlimiy sharoitlar ibtidoiy jamoalarning dastlab o'zlashtiruvchi, keyinchalik esa ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tishiga zamin yaratgan. Demak, Amudaryoning geografik harakati nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Bu esa Xorazm vohasida urug'chilik tuzumining shakllanishi va takomillashuvi jarayonlarini kengroq tushunish imkonini beradi.

Mazkur holat, o'z navbatida, ibtidoiy jamoalar hayot tarzining hududiy joylashuvi va xo'jalik faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

Amudaryoning qadimiy Oqchadaryo deltasi hozirgi Sho'raxon tevaraklaridan boshlangan. Sulton Uvays tog'igacha yo'nalgan bu o'zan Janubiy Oqchadaryo va Qizilqumdan o'tib, Orol dengiziga quyilgan o'zan – Shimoliy Oqchadaryo deb ataladi. [3, C.35]

Amudaryoning so'l sohildan g'arbiy tomonga yo'nalgan Davdon va Daryolik o'zanlari uzunligi 250-300 km bo'lgan. Davdon Xonqa va Urganch oralig'ida, Daryolik esa Urganch shahridan 18 km shimolida Amudaryodan ajralib chiqib, ular 20-30 km uzoqlikdagi maydonda Sariqamish ko'liga tengma-teng ravishda yo'nalgan. Amudaryo suv oqimi barqaror bo'lmaganligi

bois, Davdon va Daryolik o‘zanlarida suv oqimi goh-gohida ko‘tarilishi bir necha tarmoqlarni hosil qilgan. Davdonning pasttekislik orqali bir necha shaxobchalaridan biri ilonizida Sariqamish ko‘liga yo‘nalgan, daryolik irmog‘i yo‘nalishida birmuncha farqlanish kuzatiladi, ya‘ni u Amudaryoning so‘l sohilidan g‘arbiy tomon ajralib chiqqan joyidan boshlangan. [4, B.8-9]

Bu ikki o‘zan Sariqamish pasttekisligida ko‘l hosil qilgan. Sersuv ko‘lining suvlari esa Uzboy o‘zanidan 550 km uzunlikda Qoraqumning shimoliy tevarak-atroflaridagi qumtepalliklarni yorib o‘tib, Kasbiy dengizining Bolxon qo‘ltig‘iga quyilgan. [3, C.16-17]

Janubiy Orolbo‘yi hududlarini o‘zlashtirish masalasi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining tadqiqotlarida muhim o‘rin tutgan. Natijada, Quyi Amudaryo yerlarining olis zamonlardayoq ibtidoiy jamoalar o‘zlashtirishi jarayonlari boshlanishidan, turli tarixiy bosqichlardagi atrof-muhitda antropogen ta’sir izlari aniqlangan. Ular tabiiy-geografik sharoitning o‘zgarib turishiga asos bo‘lgan. [3, C.16-17]

Yuqoridagi ma’lumotlarga tayangan holda, Amudaryoning qadimiy o‘zanlari atrofida vujudga kelgan qulay tabiiy sharoitlar Xorazmda ibtidoiy urug‘chilik tuzumining shakllanishiga zamin yaratgan. Suv manbalari va boy resurslar urug‘chilik jamoalarining barqaror xo‘jalik yuritishi va ijtimoiy birlikda yashashini ta’minlagan degan fikrga kelish mumkin.

Eng qadimgi davrlarda Ustyurt, Orolbo‘yi, Qizilqumning paleogeografiyasi va iqlimi zamonaviy geografik sharoitga mos kelmagan. Hozirda Orolbo‘yidagi cho‘lga aylangan tekisliklar, tosh davrining paleolit, mezolit va neolit bosqichlarida ichimlik suvi bilan yetarlicha ta’minlagan edi. [5, C.137]

Asaka-Ovdon botig‘idagi Shahpaxta atrofidagi ibtidoiy manzilgohlar madaniy qatlamidan ham qadimgi tosh davriga oid mehnat qurollari olingan. [6, C.65-68 va C. 8-20]

Amudaryoning so‘l sohilidagi Burli-3 maskanida va o‘ng sohilidagi Sulton Uvays tog‘ining shimoliy va g‘arbiy tizmasi tevaragida ham so‘nggi paleolit va mezolit davrlariga xos mehnat qurollari topilgan. [7, C.74-77]

Yuqoridagi manbalarga tayangan holda, Xorazm vohasida paleolit davridayoq inson yashashi uchun qulay tabiiy sharoit mavjud bo‘lganini ko‘rish mumkin. Arxeologik topilmalar bu hududda qadimiy odamlarning yashaganini tasdiqlaydi. Topilgan mehnat qurollarining qadimiyligi esa insonlarning asta-sekin jamoaviy hayotga, urug‘chilik tizimiga o‘tganligidan dalolat beradi.

Xorazm vohasidagi hayotning asosi hisoblangan Amudaryo haqida yunon tarixchisi Geradotning asarlaridan ham ma’lumotlar uchraydi.

Aytishlaricha, Araksda Lesbosga teng keladigan orollar ko‘p. Ana shu orollarda yoz paytida yerdan turli o‘simliklar ildizlarini kovlab olib, ularni iste’mol qiluvchi odamlar yashaydilar. Yozda ular daraxtlardan pishgan mevalarni terib, g‘amlab qo‘yadilar. Shuningdek, o‘sha yerda maxsus navli meva hosil qiladigan boshqa daraxtlar mavjud bo‘lib, ularning, mevasini avaylab terib oladilar. Bir joyda yig‘ilgan massagetlar gulxan yoqib, uning atrofida o‘tirib, haligi mevalarni olovga tashlaydilar. Kuydirilgan meva tutunini hidlashib, vino ichgan ellinlar singari, mast holatga keladilar. Ular ancha ko‘p mevalarni olovga tashlashsa, shuncha zo‘r kayfiyatda bo‘ladilar; nihoyat o‘rinlaridan irg‘ib turib, raqsga tushadilar va qo‘shiq ayta boshlaydilar. [8, C.202]

Gerodot tasvirlagan Amudaryo havzasi, suv manbalari, oziq-ovqat yetarliligi va mo‘tadil iqlimi bilan ibtidoiy jamiyatlar uchun qulay tabiiy muhit bo‘lgan. Mevalarni yig‘ish va birgalikda iste’mol qilish jarayonlari, paleolit davrida boshlanib, o‘zlashtiruvchi xo‘jalik bosqichida ibtidoiy jamoaning shakllanishini ko‘rsatadi.

Xorazm vohasida antropogen landshaftining shakllanishi va uning o‘zgarib borishi jarayonlarini o‘rganishda arxeologik ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega. Oqchadaryoning janubiy va shimoliy sarhadlari suv havzalari sohillari etaklarida neolit davriga oid manzilgohlarning arxeologik jihatdan o‘rganilishi jarayonida Janubiy Xorazmdagi Kaparas vohasi suv havzalari sohillarida ham neolit davriga oid mehnat qurollari topilgan. Oqchadaryo sarhadlarida neolit davridagi odamlar manzilgohlari keng tarzda yoyilganligi kuzatiladi. [9, C.125-126 va C.36-77]

M. A. Itina mazkur jarayonni neolit davrida Amudaryo suvining Oqchadaryo irmog‘i orqali Orolga yo‘nalgan holati bilan izphlaydi. [10, C.25-26] Shimoliy Oqchadaryo havzasi neolit davrida kam miqdorda o‘zlashtirilgan. Fikrimizcha, bu jarayonga ilk neolit davrida Oqchadaryo irmog‘idan

qo'shimcha tarmoq shimoli-g'arbiy tomonlarga ajralmagan bo'lsa kerak. Sirdaryoning Jonadaryo irmog'i Orol tomon kam suv olib kelganligi ham sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Bunday jarayoni Sariqamishbo'yi havzasi sarhadlari atroflarida kuzatish mumkin. Janubiy Oqchadaryo irmoqlari va ko'llar sohillarida bir-biriga zich joylashgan neolit davri manzilgohlari tarix fanida "Kaltaminor madaniyati" atamasida o'rin olgan. [11, C.155-160 va C. 27-74]

Bronza davrida (Suvyorgan, Tozabog'yop, Amirobod madaniyatlari) Oqchadaryo havzasining o'zlashtirilishi jarayoni jadal davom etgan. Y. F. G'ulomov Oqchadaryo irmog'i artotflarida Suvyorgan madaniyatiga oid 12 ta yodgorlikni topib tekshirgan. [12, B.51-54]

Oqchadaryo sarhadida Tozabog'yop madaniyatiga oid 50 dan ortiq arxeologik yodgorliklar o'rganilgan. Ularning hududiy joylashishi o'z xususiyatlariga ega bo'lib, makonlar kichik irmoqlar va ko'llar sohillarida joylashgan. [10, C.25-26]

Janubiy Oqchadaryo havzasida so'nggi bronza davrida Amirobod madaniyati tarkib topgan. Mazkur madaniyat tarixini Yakkaparsen 2 yodgorlikidan olingan ashyolar yorqin tasvirlaydi. Manzilgohda yarim yerto'la uy-joy qoldiqlari va janubi-g'arbiy tomonida sug'orish inshootida qoldiqlari o'rganilgan. [13, C.68]

Arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, bronda davri Sariqamish havzasidagi manzilgohlar ozchilikni tashkil qilgan Davdon irmog'i havzasi artotflarida mavsumiy makonlar o'rganilgan, xolos. Mazkur holat Davdon va Daryolik irmoqlarida suv sathi pasayib qolishi bilan bog'liqligi sabab qilib ko'rsatilgan. [3, C.179]

Mil. Avv. IV – III ming yilliklarda Uzbay atroflarida o'ndan ortiq neolit davriga oid manzilgohlar arxeologik jihatdan o'rganilgan. [14, C.66-67]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm vohasining antropogen landshaftining shakllanishida Oqchadaryo irmoqlari bo'yidagi arxeologik manzilgohlar muhim rol o'ynagan. Neolit davrida Janubiy Oqchadaryo bo'ylarida joylashgan Kaparas va Kaltaminor madaniyati yodgorliklari qadimgi jamiyatlarning barqaror yashaganini ko'rsatadi. Oqchadaryoning shimoliy qismi kamroq o'zlashtirilgan, bu irmoqlarning suvsizligi va tarmoqlanishining cheklanganligi bilan izohlanadi. Bronza davrida Suvyorgan, Tozabog'yop va Amirobod madaniyatlari asosida Oqchadaryo havzasida aholining faol yashashi va sug'orma dehqonchilik tizimi shakllandi. Davdon va Daryolik irmoqlari hududida esa suv sathining pasayishi tufayli mavsumiy yashash joylari vujudga keldi. Uzboy atrofidagi manzilgohlar ham neolit davrida faol o'zlashtirilgan. Umuman olganda, neolit davridan boshlab o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tish jarayoni boshlandi, yashash sharoitlari yaxshilandi va urug' jamoalari soni ortdi.

Xorazm vohasining tabiiy va ijtimoiy sharoitlari jamiyatning o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tishiga yordam berdi. Dastlabki urug'chilik jamoalari o'zaro qarindoshlik va ijtimoiy birlik asosida hayot kechirgan. Kelgusida bu hududda rivojlanishning yangi bosqichlari, jumladan, ijtimoiy tuzumning o'zgarishi, malakali ishchilar va yer resurslarining samarali boshqarilishi muhim omil bo'lgan.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar va arxeologik manbalarga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Xorazm vohasi hududi qadimgi tosh davridan inson yashashiga qulay tabiiy sharoitlarga ega bo'lib, ilk urug' jamoalari shakllangan. Qadimgi davrlarda Xorazm Amudaryoning ko'plab irmoqlari – Oqchadaryo, Sariqamishbo'yi va Uzboy o'zanlari orqali sug'orilgan. Sharqda Qoraqum cho'li, shimolda Ustyurt platosi va g'arbda Kaspiy dengizi hududning tabiiy chegaralarini belgilab bergan. Neolit va bronza davrlarida barqaror jamoalar shakllanib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sodir bo'lgan. Temir davriga kelib, mehnat qurollarining takomillashuvi, ishlab chiqarish jarayonlarining kengayishi va mulkiy tabaqalanish tufayli ijtimoiy tuzilmalar murakkablashdi va ilk davlat shakllandi. Xorazm vohasi insoniyat tarixida qadimgi jamiyatlarning shakllanishi va taraqqiyotida muhim rol o'ynagan.

Сноски / Iqtiboslar / References

1. Абрамова Т. А. Палеогеография Арало-Каспийского региона в позднем голоцене по новым палеологическим данным // Палеогеография и геоморфология Каспийского региона в плейстоцене. — М.: 1993. — С. 116–121.
2. Кесь Д. С. Антропогенное воздействие на формирование рельефа аллювиальнодельтовых равнин Амударьи // Культура и искусство древнего Хорезма. — М.: «Наука», 1981. — С. 72–80.
3. Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения. — М.: МХЭ, Вып3. -М., 1960. — С. 16-17, 35, 179.
4. O‘zbekiston tarixi (Xorazm tarixi). XI jild (O‘zbekiston tarixi va manbalari). — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. — B.8–9.
5. Крахмаль К.А. Хроностратиграфия памятников археологии позднего плейстоцена-раннего голоцена на территории Узбекистана. — Ташкент: «Университет», 2015. — С. 137.
6. Бижанов Е.Б. О находках памятников каменного века в районе впадины Шахпахты на Устюрте // Вестник ККО АН Уз, Вып №1. — Нукус, 1983. — С. 65–68; Бижанов Е.Р. Памятники каменного века впадины Шахпахты // Археология Приаралья. — Т.: «Фан», 1984. Вып. 4. — С. 8–20.
7. Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султангыздаге // Приаралье в древности и средневековье. — М.: «Наука», 1998. — С. 74–77.
8. Геродот. История. В девяти книгах / Пер. и примеч. Г.А. Стратановского. — Л.: «Наука», 1972. — Книга I. — С. 202.
9. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма // МХЭ. Вып. №8. — М.: «Наука», 1968. — С. 125–126. Итина М.А. Неолит и бронзовый век Южного Хорезма. — М.: «Наука», 1991. — С. 36–77, рис. 2.
10. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья // Тр. ХАЭ. — М.: «Наука», 1977. Т. X. — С. 25–26.
11. Толстов С.П. Древности Верхнего Хорезма (Основные итоги работ Хорезмской экспедиции ИИМК. 1939 г.) // ВДИ. №1. — 1941. — С. 155–160; Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. — М.: ИВЛ, 1962. — С. 27-74; Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья // Тр. ХАЭЭ. Т. XII. — М.: «Наука», 1981.
12. Фуломов Я.Ф. Хоразминг суғорилиш тарихи. — Т.: «Фан», 1959. -Б. 51-54.
13. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. — М.: ИВЛ, 1962. — С. 68
14. Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949–1953 гг. // Тр. ХАЭЭ. Т. II. — М.: «Наука», 1958. — С. 66-67.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000